



BOLALAR PSIXIKASINI SHAKLLANISHIDA O'YIN TERAPIYA FENOMEN SIFATIDA

Sultonova O`qilxon Sobirjonovna

Qo`qon davlat pedagogika institute Maktabgacha pedagogika va psixologiya
kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12527296>

Annotatsiya: Ushbu maqolada rolli o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida muhim rol o'ynashi, ya'ni ko'p qirrali shaxsni shakllantirishga, psixik rivojlanishi, muloqot qobiliyatlarini, ijodiy fikrlashni, hissiy va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishga yordam berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: rolli o'yinlar, bolalarning rivojlanishi, maktabgacha yosh.

Аннотация: Данная статья основана на том, что ролевая игра играет важную роль в развитии детей дошкольного возраста, то есть способствует формированию многогранной личности, развитию коммуникативных навыков, творческого мышления, эмоциональной и социальной компетентности.

Ключевые слова: ролевые игры, развитие детей, дошкольный возраст.

Abstract: This article is based on the fact that role-playing play plays an important role in the development of preschool children, that is, it contributes to the formation of a multifaceted personality, the development of mental development, communication skills, creative thinking, emotional and social competence.

Key words: role-playing games, child development, preschool age.

Bolalar psixikasini shakllanishida o'yin terapiya kundalik hayotdan farq qiladigan xatti-harakatlardir. Bu bolalarni o'rab turgan dunyo bilan munosabatini tasvirlaydigan faoliyat turi hisoblanadi. Dastlab bolalar ishtirokida olib boriladigan o'yinlar ularning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'yin faoliyatida bola atrof muhit bilan tanishib, odamlarning muayyan harakatlari sabablarini tushunishni va o'zlashtirishni boshlaydi. O'yin faoliyati davomida bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni, o'z manfaatlarini boshqalarning manfaatlariga taqqoslash qobiliyatini shakllantiradi. Shuningdek, o'yin bolaning ixtiyoriy xatti-harakatlarini rivojlantirishda ham asosiy faoliyat turi hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davridagi o'yin mashg'uloti ularning dastlabki faoliyat turlaridan hisoblanib, bolaning eng erkin, tasodifiy faoliyat turi ekanligi bilan tavsiflanadi. Pedagogik jarayonda o'yin faoliyati bolalarning o'quv faoliyatiga



tayyorlovchi komponent rolini o'taydi. Xususan, dastlab bolaning diqqatini ixtiyorsizlikdan ixtiyoriylikka moslashtiruvchi funksiyani bajaradi. Bunda, olib boriladigan o'yin mashg'ulotlari 10-15 minutni tashkil etishi, ularni keyingi o'quv mashg'ulotlarida 30 daqiqadan oshiq diqqat barqarorligini saqlab turish uchun ko'nikmani rivojlantirishga asos bo'ladi.

O'yinlar mazmunini o'ziga xos xususiyatlari, bolalar hayotida ularni tarbiyalash va o'qitishda qanday o'rin egallashi bilan farq qiladi. Pedagogik amaliyotda o'yinlarning ko'p turlari mavjud: nutq terapiyasi, rivojlanish, savodxonlik o'yinlari, mantiqiy rivojlanish, fikrlash, didaktik, musiqiy kabi.

Musiqiy o'yin maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi va shaxsiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, quyidagi psixik jarayonlarning rivojlanishini ta'minlaydi:

- Ushbu turdagi o'yin faoliyati qo'shiq matnini oldindan o'rganishni talab qilganligi sababli, bolada nutq va xotirani rivojlantiradi.
- Musiqiy o'yinlar asosan maktabgacha yoshdagi bolani tarbiyalaydigan qoidalar mavjudligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.
- O'yin davomida bolaning xayoliy tafakkuri shakllanib, natijada ularning ko'rgazmali-so'z mantiq tafakkurini rivojlanishi uchun resurs vazifasini ta'minlaydi.
- Bola musiqa tinglash davomida eshitishni o'rganadi, bu esa uning diqqatini ma'lum bir obyektga to'plash qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi.
- Musiqa ritmiga mos harakat qilayotgan bolada musiqiy-ritmik tuyg'u hamda ular o'rtasidagi munosabatlar rivojlanadi.
- Musiqa ritmi ularning emotsional barqarorligini to'g'ri shakllantirib, ularda mavjud stresslarni bartaraf etishga olib keladi.

Shuningdek, bolalar bog'chasida musiqiy o'yinlar va raqslar maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasining ajralmas qismidir. Musiqa asosida tashkil etilgan hikoyali o'yinlar bolalar harakatlarini qahromonlarning muayyan harakatlariga taqlid qilishi bilan xarakterlanib, ularning xulq-atvorini adekvat shakllanishiga asos bo'ladi.

Raqslari o'yin terapiyalarda bolalarda yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, hali improvizatsiya qilish jarayoni harakatlar tilini anglashga, mustaqil ravishda yondashishga tayyor emasligi bilan tavsiflanadi. Bunda, "Quvnoq ayiqcha", "Musiqiy soyabon", "Ona va jo'ja" kabi muayyan raqsli trening mashg'ulotlaridan foydalanish bolalarda:

- bolaning tasavvurini faollashtiradigan, uni ma'lum ifodali ijro etishga yo'naltirishi;



- bolaning har bir obrazda harakatlarni bajarishini ta'minlaydigan idrok jarayonini shakllanishi;
- hamda motor-harakat a'zolarini to'g'ri rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Mashg'ulotlar davomida guruh-y-musiqiy va didaktik o'yinlardan foydalanish bolalarda hissiy barqarorlik, tartiblilik, ixtiyoriy diqqatni hamda o'zaro munosabatlarda bir-birini tushunishni talab qiladi. Bolalarga musiqaga bo'lgan muhabbatni ular uchun qulay shaklda singdirish, bolaning aqliy faoliyatini faollashtirish, bolada o'yinga nisbatan ijodiy munosabatni tarbiyalaydi.

Demak, musiqiy o'yinlar bolalarning hafaqat hissiy barqarorligini, balki ularning kelgusidagi o'quv, ijodiy faoliyatiga nisbatan motivatsion jabhalarini shakllanishiga asos bo'ladi. Mashg'ulotlarni, ya'ni musiqiy va ta'lim faoliyatini tashkil etish shakli tarbiyachidan uzoq va puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Bunda tarbiyachilar bolalarning yosh individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni sahnalashtirish, bolalarni ham aqliy ham jismoniy to'g'ri rivojlanishiga izn beradi.

Musiqiy o'yinlar yorqin va ifodali obrazlarga ega bo'lgan musiqiy asarlar asosida tashkil etilishi, xususan, hayvonlar va qushlarning raqslari, ertak qahramonlarining raqslari, gullar raqslari, olov, suv, bulutlar, qor parchalari va boshqa usullardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.

Demak, barcha rolly o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning eng muhim va samarali usullaridan biridir. O'yin davomida bolalar turli xil rollar va vaziyatlarga taqlid qilishadi, bu ularga atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish, muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish imkonini beradi.

Rolli o'yinlarni bola rivojlanishidagi asosiy jihatlaridan biri bu o'zaro aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Boshqa bolalar bilan muloqot qilish jarayonida bola o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda etishni, boshqalarni tinglashni va tushunishni, murosaga kelishni va nizolarni hal qilishni o'rganadi. Bularning barchasi atrofdagi odamlar bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, rolly o'yin bolalarda ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin davomida ular turli vaziyatlarni, o'z dunyolarini yaratishi, turli rollar va hikoyalarni ixtiro qilishi mumkin. Bu ularga dunyoni turli nuqtai nazardan ko'rishni o'rganishga va hatto tasavvurlaridan foydalangan holda muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Shuningdek, rolly o'yin bolalarda hissiy va ijtimoiy kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi. O'yin davomida ular o'zlarining his-tuyg'ularini





ifoda etishlari, ularni boshqarishni o'rganishlari, boshqa odamlarning his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlasishlari kuzatilinadi.. Bu ularni boshqalarga nisbatan yanada yoqimli, ochiqko'ngil va ishonchli bo'lishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki bolalar bilan ijodiy musiqiy o'yinlarni tashkil etishda uslubiy jihatdan muhim jihat- bu o'yinlarning asosini tashkil etadigan musiqiy asarlarni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlanishi va noadatiy usullardan foydalanish, ularning jismoniy hamda psixik me'yorda o'sishini ta'minlovchi vosita vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Rasulova M., D. Abdullayeva, S. Oxunjonova. Bolalarning maktabga psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003.
2. Jalilova S. va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. – Toshkent. – 2009.
3. Смирнова Е.О., Гударева О.В. Игра и произвольность у современных дошкольников // Вопросы психологии. – 2004. – № 1. – С. 10–22.